

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Bolalarda ko‘krak suti bilan oziqlantirishning tug‘ma immunitetga hamda ichak mikrobiotasidagi mahalliy va fakultativ/tranzitor <i>E.coli</i> to‘plamining shakllanishiga ta‘sirini aniqlash 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - to‘g‘ri ko‘krak suti bilan oziqlantirish bolalarning ajralmalari va koprofiltratlarida lizotsim, laktoferrin, sekretor immunoglobulin A darajasi va faolligiga ijobiy ta‘sir etishi aniqlanadi. - o‘tkir diareya bilan kasallangan bemorlar va deyarli sog‘lom bolalar populyatsiyasida diareogen <i>E.coli</i> ning uchrash spektri va darajasi ko‘rsatiladi. - tadqiqotda bolalarda o‘tkir diareyada yo‘g‘on ichak shilliq qavatining nospetsifik rezistentligi holati yo‘g‘on ichak shilliq qavatining mikrostrukturasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni, koprofiltratdagi A sinf mahalliy nospetsifik sekretor immunoglobulin darajasi va qon zardobidagi polimorf yadroli leykotsitlarning funksional faolligini kompleks baholash asosida infeksiyon jarayonning kechish xususiyatini bashoratlovchi mezonlar aniqlanadi. - ko‘krak suti bilan oziqlantirishga rioya qilmaslik yo‘g‘on ichak shilliq qavatida past antiinfekcion rezistentlikning shakllanishiga, og‘ir va o‘rta og‘irlikdagi o‘tkir ichak infeksiyasining rivojlanish ehtimolini ortishini ko‘rsatadi va zarur tavsiyalar ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligini muhofaza qilish xizmati faoliyatida sinovdan o‘tkaziladi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi amaliyotiga tatbiq etiladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligini muhofaza qilish xizmati hamda Sog‘liqni saqlash vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligini muhofaza qilish xizmati yoki Sog‘liqni saqlash vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.